
TERIMCHILAR BILAN SUHBAT

Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i K. Kavlonova va Rishton tumanida oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i M. Bekmirzaeva bilan birgalikda Rishton tumanida yetishtirilgan 2022 yilgt paxta hosili bo'yicha tashkil etilgan terim jarayonlarini fermer xo'jaliklariga borib o'rgandi. Rishton tumanida 228 ta fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib, bugungi kunda ularning 52 tasida paxta terimi tashkillandi. Paxta terimini uyushqoqlik bilan o'tkazish maqsadida, 99 ta terim otryadlari tashkil etildi. K. Kavlonova, «Paxtakor», «Iqror», «Erali o'g'li-Sherali», “Qayrog'ochlik Solijon Maxsum” fermer xo'jaliklariga tashrif buyurib, u yerda olib borilayotgan terim jarayonlarida ishtirok etayotgan xotin-qizlar va onaxonlar bilan uchrashib terimchilar uchun yaratib berilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. Uchrashuv jarayonlarida, xotin-qizlar bilan dildan suhbat qurgan holda ilg'or terimchilarga sovg'alar ulashdi.

2022-09-07 06:18:21